Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(Impact Factor) 9.573/2026
ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Google Scholar
doi® digital object identifier
Academic Resource Index ResearchBib
Crossref
SLIB.UZ Scientific library of Uzbekistan

2/2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg‘un G‘AFUROV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa’d DAMANHURIY – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil 26-oktyabrdagi 03-07/8377-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

Muassis:

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:

Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Shahzod Islamov
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:

Zarifjon Arslonov

Dizayner:

Zarifjon G‘ulomov

«**MOTURIDIYLIK**» jurnali **O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiya**sining 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 11-uy.
E-mail:info@maturidijournal.org
Web-sahifa:maturidijournal.org
Telefonlar:(+99855) 515-98-98

МУНДАРИЖА

ISLOMSHUNOSLIK

Muzaffar KAMILOV
Sirojiddin O‘shiyning «al-Fatovo» asarida muftiy odoblari va unga qo‘yiladigan talablar 4

Otabek MUHAMMADIYEV
Dorul hadis – hadis markazlari faoliyati tahlili 15

Mekhrojiddin AMONOV
Zarafshon vohasidagi tariqat murshidlari: o‘zaro munosabat va tahlil 26

Hamida ILHOMOVA
Abu Hanifa shaxsiyati va ilmiy merosining o‘rganilishi 34

ISLOM HUQUQI

Nargiza KHALKHODJAEVA
Islomda farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq sunnat amallarning tarbiyaviy ahamiyati 41

Rakhshona KENJABOYEVA
Sadr shahid Husomuddin Umar Buxoriyning «Kitob al-vaqf» asarida faqihlarning vaqf nazariyasi: fiqhiy bahslar va ularning huquqiy ahamiyati 47

DINSHUNOSLIK

Rustamjon BOZOROV
«Tablig‘ jamoati»ning Markaziy Osiyoda tarqalish omillari va milliy xavfsizlikka ta’siri 57

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIGI

Shahzod ISLAMOV, Olovkhon NEMATOV
Abu Hafs Nasafiyning «al-Qand fi zikri ulamoi Samarqand» asari VIII–XII asrlar Samarqand ilmiy muhiti haqidagi nodir manba 64

Doston MUSTAFOYEV
Tarjumon al-Qur’on – Qur’on lug‘ati ma’nolariga oid xalqchil risola 80

FILOLOGIYA

Nodirabegim SAIDOVA
Bo‘lajak arab tili o‘qituvchilarini tayyorlashda kasbiy va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirish (oliy ta’lim muassasalari tajribasi misolida) 86

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-2/9

Doston MUSTAFOYEV[a]

[a]*Doctor of History in Islamic Studies*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A. Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: burhon9192@gmail.com

TARJUMON AL-QUR'ON – QUR'ON LUG'ATI MA'NOLARIGA OID XALQCHIL RISOLA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sayyid Sharif Jurjoniyning «Tarjumon al-Qur'on» asari Qur'oni karim so'zlari va iboralarining fors tilidagi ma'nolarini ifodalovchi xalqchil lug'aviy-tarjimaviy manba sifatida tadqiq etiladi. Asarning yaratilish tarixi, Qur'on lug'ati va g'arib al-Qur'on yo'nalishidagi manbalar tizimidagi o'rni, shuningdek, Movarounnahr tafsirchilik an'anasi bilan bog'liq jihatlari yoritiladi. «Tarjumon al-Qur'on»da Qur'oni karimdagi so'zlar, so'z birikmalari, iboralar, atoqli nomlar hamda muqattaot harflarining sodda va tushunarli tarzda sharhlangani tahlil qilinadi. Muallifning so'zlarni kontekstga muvofiq ma'nolantirishi, bir so'zning turli oyatlarda turlicha ma'noda qo'llanishini hisobga olishi hamda ilmiy istilohlarni oddiy xalq uchun tushunarli shaklda bayon etishiga alohida e'tibor qaratiladi.*

Shuningdek, asarning Jurjoniyning «at-Ta'rifot» va «Hoshiya ala al-Kashshof» kabi asarlaridan maqsad va auditoriya jihatidan farqli ekani ko'rsatiladi. Tadqiqot natijasida «Tarjumon al-Qur'on»ni g'arib al-Qur'on bilan bir qatorda «Qur'on ma'nolari» sohasiga oid muhim manbalardan biri sifatida baholash mumkinligi asoslanadi. Asarning fors tilida yaratilgani uni Temuriylar davrida forsiyzabon aholi uchun Qur'on ma'nolarini anglashda muhim vosita bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:*Sayyid Sharif Jurjoniy, Tarjumon al-Qur'on, Qur'on lug'ati, g'arib al-Qur'on, Qur'on ma'nolari, Qur'on so'zlari, fors tili, tafsir, Movarounnahr, Temuriylar davri, muqattaot harflar, Qur'on iboralari, lug'aviy ma'no, xalqchil risola.*

TARJUMAN AL-QURAN – A POPULAR TREATISE ON THE MEANINGS OF QURANIC LEXICON

Abstract. *The article explores Sayyid Sharif Jurjani's work «Tarjuman al-Qur'an» as a popular lexical and translational source that expresses the meanings of Qur'anic words and phrases in the Persian language. It sheds light on the history of the work's creation, its place in the system of sources within Qur'anic lexicography and the Gharib al-Qur'an (rare words of the Qur'an) genre, as well as its aspects related to the Mavarannahr tradition of tafsir (exegesis). The article analyzes the simple and comprehensible explanation of Qur'anic words, phrases, idioms, proper names, and the Muqatta'at (disconnected letters) in «Tarjuman al-Qur'an». Special attention is paid to the author's contextual interpretation of words, accounting for the variation of a word's meaning across different verses, and presenting scientific terminology in a form accessible to the general public.*

Furthermore, the paper demonstrates how this work differs in purpose and audience from Jurjani's other treatises, such as «al-Ta'rifat» and «Hashiya ala al-Kashshaf». As a result of the research, it is substantiated that «Tarjuman al-Qur'an», along with Gharib al-Qur'an, can be evaluated as one of the essential sources in the field of «meanings of the Qur'an». The fact that the work was written in Persian indicates its significance as a crucial tool for the Persian-speaking population during the Timurid period to understand the meanings of the Qur'an.

Keywords:*Sayyid Sharif Jurjani, Tarjuman al-Qur'an, Qur'anic dictionary, Gharib al-Qur'an, meanings of the Qur'an, Qur'anic words, Persian language, tafsir, Mavarannahr, Timurid period, Muqatta'at letters, Qur'anic expressions, lexical meaning, popular treatise.*

KIRISH

Tafsir ilmi o‘zining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida bir necha muhim bosqichlarni bosib o‘tgan. Dastlab Qur’oni karim oyatlaridagi ayrim so‘z va iboralarning ma’nolarini anglash, ularning lug‘aviy hamda istilohiy xususiyatlarini izohlashga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan, Qur’on so‘zlarining ma’nolarini jamlagan ilk asarlar «G‘arib al-Qur’on» lug‘atlari hamda Qur’on lafzlarining turli ma’nolarda qo‘llanishini o‘rganuvchi «Vujuh va nazoir» yo‘nalishidagi kitoblar hisoblanadi.

Mazkur asarlar keyinchalik tafsir ilmining mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishida muhim ilmiy manba vazifasini bajargan. Ularda Qur’on tilining o‘ziga xosligi, kam qo‘llanadigan yoki ma’nosi murakkab bo‘lgan so‘zlarning izohi, shuningdek, bir lafzning turli oyatlarda turlicha ma’nolarda qo‘llanish holatlari yoritib berilgan.

ASOSIY QISM

Manbalarda Qur’oni karimning ilk tarjimalari fors tilida bo‘lgani, xususan, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotlik chog‘larida Fotiha surasi fors tiliga tarjima qilingani qayd etilgan. Imom Saraxsiyning «al-Mabsut» kitobida keltirilishicha, forslar sahobiy Salmon Forsiydan Fotiha surasining o‘qilishini fors tilida yozib berishni so‘rashgan. Ular suralarni arabcha talaffuz qilishni o‘rganib olgunlariga qadar, namozda uni o‘qishgan (Saraxsiy, n.d.:I, 42). Shuningdek, Imom Navaviyning «al-Majmu’ fi sharh al-Mahazzab» kitobida ham bir guruh forslar Salmon Forsiydan Qur’ondan biror narsa yozib berishni so‘rashganida, u esa Fotiha surasining o‘qilishini fors alifbosida yozib bergani haqida ma’lumot berilgan (Navaviy, 1980:III, 380).

Ta’kidlash kerakki, XVI asr oxiriga qadar Qur’oni karimning fors tilidagi to‘liq ma’nolar tarjimasi amalga oshirilmagan. Manbalarda ilk forscha tarjima va tafsirlar haqida turli fikrlar mavjud. Ulardan birida Qur’onning ilk forscha tafsiri X asrga oid ekani aytilgan. Somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh (961–976) «Tafsiri Tabariy» asarini o‘qib tushuna olmaganida Buxoro, Balx, Samarqand, Isfijob va Farg‘onadan olimlarni chaqirtirib, Qur’onning boshqa tilga tarjimasini amalga oshirish masalasida fatvo so‘ragan. Bu ish joizligi haqida fatvo olingach, Tabariy tafsiri asosida muxtasar bir tarjima amalga oshirilgani aytiladi (Storey, 1972:99–100).

Eronlik tadqiqotchi G‘ulom Husayn Sodiqiy esa Abu Ali Muhammad ibn Abdulvahhob Xuzistoniy Mo‘taziliy (vaf. 915-y.) tomonidan fors tilida yozilgan tafsir bizgacha yetib kelgan bu kabi manbalarning eng qadimiylaridan biri ekanini ta’kidlaydi (Sodiqiy, 1966:85). Boshqa bir fikrga ko‘ra, Qur’oni karimning fors tilidagi ilk tarjimasi Shayx Nizomiddin Nishopuriy (vaf. 1328-y.) tomonidan yozilgan «G‘aroib al-Qur’on rag‘oib al-Furqon» («Qur’ondagi g‘arib so‘zlar») nomli arabcha tafsirda uchraydi. Mazkur asarga oyatlarning tafsiri bilan birga, fors tilidagi tarjimalari ham kiritilgan. Fors tilidagi ilk tafsir kitobi Shihobiddin Davlatobodiy (vaf. 1445-y.) tomonidan yozilgan «Bahr Mavoj» ekani haqida ma’lumotlar uchraydi. Muallif mazkur manbada oyatlarning ma’nolarini qisqa sharhlash orqali ochib bergan (Farishta, 2008:I, 306).

Sayyid Sharif Jurjoniyning «Tarjumon al-Qur’on» asari kabi Qur’on so‘zlarining forsiy tarjimalariga bag‘ishlangan asarlarning dastlabkisi esa Abul Maoliy Ahmad ibn Muhammad G‘aznaviy (vaf. 1166-y.) ning «Tarojum al-a’ajim» nomli kitobi hisoblanadi. Mazkur manba Jurjoniyning «Tarjumon al-Qur’on» asari kabi mufradot al-Qur’onning forsiy tarjimalariga bag‘ishlangan. So‘zlar suralar tartibida berilgan, ammo Qur’onning dastlabki surasidan emas, balki oxirgi surasi hisoblangan Nos surasidan boshlangan. Shu tariqa Falaq, Ixlos, Masad suralaridagi so‘zlar tarjimasi bilan davom etilgan (G‘aznaviy, n.d.:№ 1249).

Movarounnahrda ham tafsir ilmi yuksak taraqqiy etgan, Samarqand, Buxoro, Termiz, Nasaf kabi shaharlardan o‘nlab mufassirlar yetishib chiqqan. Ular o‘z tafsirlarida oyatlarni aqida, fiqh, tasavvuf, arab tili grammatikasi, balog‘at ilmlari nuqtai nazaridan izohlash bilan bir birga, lug‘at ilmiga alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, Muhammad Hakim Termiziy (vaf. taxminan 932-y.) «Tahsil nazoir al-Qur’on» («Qur’ondagi so‘zlarning turli ma’nolarini o‘rganish») asarida Qur’oni karimdagi 81 ta so‘z ma’nolariga batafsil to‘xtalgan (Maxsudov va b., 2022:5). Hakim Termiziyga zamondosh bo‘lgan moturidiylik ta’limoti asoschisi Abu Mansur Moturidiy (vaf. 944-y.) tafsir bir-ra’y yo‘nalishiga mansub mashhur «Ta’vilot al-Qur’on» («Qur’on ta’villari») asarining ayrim o‘rinlarida oyat ma’nolarini sharhlashda so‘zlarning lug‘aviy ma’nolariga ham e’tibor qaratgan.

Samarqandlik mufassir Abu Nasr Samarqandiy Haddodiy (vaf. taxminan 1009-y.)ning g‘arib al-Qur’on yo‘nalishida yozilgan «al-Muvazzih fi-t-tafsir» («Tafsir ilmida oydinlashtiruvchi») asari bir jilddan iborat bo‘lib, muallif unda Qur’on so‘zlarining ma’nolari va etimologiyasini yoritgan. Ayrim o‘rinlarda nahv (grammatik) qoidalariga ham to‘xtalib o‘tgan. Asarda ikki yuzta so‘z va Qur’onning bayon uslublarini qisqa iboralar bilan tafsir qilingan (Johin Ismoil, 2013:4726).

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Mahmud Zamaxshariy (vaf. 1144-y.)ning «al-Kashshof an haqoiq g‘avomiz at-tanzil va uyun al-aqovil fi vujuh at-ta’vil» («Qur’onning tushunish qiyin bo‘lgan o‘rinlarining haqiqiy ma’nosini hamda ta’vil qilishda so‘zlarning asoslarini ochib beruvchi») tafsiri o‘z nomi bilan «so‘zlarning asoslarini ochib beruvchi» deb nomlangan. Mazkur asarda o‘sha vaqtgacha shakllangan tafsirshunoslik an’analariga muvofiq Qur’on so‘zlarining ma’nolari ochib berilgan. Aqida, fiqh, hadis, lug‘at sohalari bo‘yicha yetuk olim sifatida shuhrat qozongan Abul Barakot Nasafiy (vaf. 1311-y.) ning «Madorik at-tanzil» nomli asari ra’y uslubidagi tafsir bo‘lib, unda Qur’on so‘zlarining ma’nolari lug‘at imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yoritilgan.

Sayyid Sharif Jurjoniyning «Tarjumon al-Qur’on» asari haqidagi ma’lumotlar «Kashf az-zunun», Kofiy taxallusi bilan mashhur Abul Fath Hamd ibn Ahmadning «Kitob al-mulaxxas fi-l-lug‘at» («Lug‘at ilmida qisqa kitob»), Muhammad Muhsin Tehroniy (vaf. 1970-y.) qalamiga mansub «az-Zari’a» (Tehroniy, 1959:XXII) («Vosita») kabi bibliografik manbalarda uchraydi.

«Tarjumon al-Qur’on» asari haqida «Kashf az-zunun»da:«Alloma bu kitob haqida «Hoshiya ala-l-Kashshof»da zikr qilgan», deyilgan (Hoji Xalifa, 2008:III, 472). «Hoshiya ala al-Kashshof» asari Samarqandda yozilgani e’tiborga olinsa, «Tarjumon al-Qur’on» undan oldin, ya’ni Jurjoniy Samarqandga kelishidan avval yozilgan, degan xulosaga kelish mumkin. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida «Tarjumon al-Qur’on» asari Jurjoniyning Samarqandda yozilgan asarlari qatoriga kiritilgan (O‘zME, n.d.:J harfi, 219).

Jurjoniy Samarqandning yirik madrasalarida yigirma yilga yaqin mudarris sifatida faoliyat yuritgan. Bu paytda fors tili asosiy ilm-fan tili bo‘lib, Qur’onda kelgan so‘zlarning fors tilidagi ma’nolarini yoritishga bag‘ishlangan ushbu asar nafaqat ilmiy doiralar, balki oddiy xalq orasida ham istifoda etilgan deyish mumkin. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 48/6 inventar raqamli jamlanmada saqlanayotgan asar nusxasi ham dalolat qiladi. Qolaversa, Temuriylar davrida bu turdagi asarlarga ehtiyoj bo‘lganini Ya’qub Charxiyning tafsirdagi uslubi ham tasdiqlaydi. Tafsirda ayrim oyatlar qadimiy turkiy tafsirlarga xos ko‘rinishda alohida so‘zma-so‘z tafsir qilingan (Usmonov, Saidova, 2010:22).

Jurjoniy ushbu asarni Qur’oni karim suralari tartibida yozgan bo‘lib, so‘zlarning Qur’oni karimda kelgan ayni shaklini emas, balki masdar, ya’ni ish-harakat nomlarini keltirgan. Masalan, Hujurot surasi 12-oyatidagi وَلَا يَغْتَبْ [va laa yag‘tab] iborasidagi «g‘iybat qilmoq» so‘zi ma’nosini yoritishda اغْتِيَاب [ig‘tiyaab] so‘zini qo‘llagan (Jurjoniy, n.d.:50b). Qur’onda ko‘plik shaklida kelgan so‘zlarning esa birlik shakllarini zikr etgan.

Mazkur asar yozilganidan bir asr keyin Odil ibn Ali Xurosoniy (vaf. taxminan 1494-y.) tomonidan alifbo tartibiga ko‘ra qayta tuzib chiqilgan. «Az-Zari’a» asarida uning Eronda uch marta, xususan, 1895-yil Tabrizda, shuningdek, 1912-yil va 1914-yil Haydariy nashriyotida Muhammad Dabir Siyoqiy muqaddimasi bilan chop etilgani qayd etilgan (Tehroniy, 1959:XXII).

«Tarjumon al-Qur’on» asarida g‘arib al-Qur’on asarlari kabi mufradot al-Qur’on[1] – Qur’oni karim so‘zlarining batafsil ma’nolariga alohida to‘xtalmagan holda, forsiyzabon o‘quvchilar uchun ularning ma’nolari tarjimalari taqdim etilgan. Ayrim o‘rinlarda esa so‘zlarning ma’nolari batafsil izohlangan. Asarni bugungi kunda chop etilgan B.Hasanning «Qur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha ko‘rsatkichli lug‘ati» (Botirbek Hasan, 1995), M.Nuritdinovning «Qur’oni karim so‘z va iboralari arabacha-o‘zbekcha ilmiy-izohli muxtasar lug‘ati» (Nuritdinov, 2020) kabi Qur’oni karim so‘zliklariga qiyoslash mumkin. Mazkur asar o‘z davrida Qur’oni karim ma’nolarining tarjimalari vazifasini bajargan, deyilsa, xato bo‘lmaydi.

«Tarjumon al-Qur’on» asarida الإسْتِعَاذَةُ [istioza] – «A’uzu billahi mina-sh-shayton ar-rojim» va بَسْمَلَة [basmala] – «bismillahi-r-Rohman ar-Rohim» hamda Qur’oni karimda mavjud to‘rt mingga yaqin so‘zlarning ma’nolari fors tilida izohlangan. Qur’oni karimda 77434 ta so‘z bo‘lib, ularning 14721 tasi takrorsiz zikr etilgan. Demak, Jurjoniy asari Qur’oni karimda takrorsiz qo‘llangan so‘zlarning taqriban to‘rtdan bir qismini qamrab olgan.

MUHOKAMA

Asarda Qur’onning turli suralaridan turli adaddagi so‘zlar keltirilgan. Masalan, Baqara surasidan 1213, Oli Imron surasidan 266, Niso surasidan 257 ta so‘zning ma’nolari yoritilgan bo‘lsa, Mumtahana, Sof, Juma, Buruj, Sharh, Qadr, Bayyina, Zalzala, Qoria, Asr, Nos suralaridan birgina so‘z ma’nosi zikr etilgan. Bu ko‘rsatkichlarda suralar hajmining ta’siri ham bor, albatta. Shu bilan birga, asarning barcha qo‘lyozma nusxalarida Kofirun va Nasr suralaridan birorta ham so‘z ma’nosi yoritilmagan. Bundan Jurjoniy ushbu suralardagi so‘zlar ma’nosini bayon etishga ehtiyoj sezmaganini tushunish mumkin.

[1] Qur’on ilmlari sohasida Qur’oni karimdagi yakka so‘zlarga nisbatan «mufradot al-Qur’on» atamasi qo‘llanadi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

«Tarjumon al-Qur’on» asarida muallif qo‘llagan sura nomlari olim yashagan davrda Qur’oni karim suralarining ana shu nomlar bilan mashhur bo‘lganini ko‘rsatadi. Jumladan, asarda Isro surasi «Bani Isroil», Fotir surasi «Maloika», G‘ofir surasi «Mo‘min»[2], Qalam surasi «Nun», Takvir surasi «Kuvvirot», Mutoffifun surasi «Tatfif», Sharh surasi «Alam nashroh», Maun surasi «ad-Diyn», Masad surasi «Abu Lahab», Nos surasi esa «Vasvas» shaklida zikr qilingan.

Ba’zi mufassirlar suralar avvalida keluvchi muqattaot harflarni mutashobih, ya’ni ma’nosini Allohdan boshqa hech kim bilmaydi deb izohlasalar, ba’zilari ular borasida turli ta’villarni aytgan. Jurjoniy ham ushbu asarda muqattaot harflarni o‘ziga xos ravishda tafsir qiladi. Masalan, Baqara surasi 1-oyatidagi الٓمٓ (Alif. Lom. Mim) harflarini أَيْ أَنَا الله أَعْلَمُ، منم خداي كه ميدانم (ay ana Allohu a’lam, manam Xudo ki midonam) – «Men barcha narsani biluvchi Allohman» ma’nosida sharhlagan (Jurjoniy, n.d.:2b). Yoki A’rof surasi avvalidagi المٓصٓ (Alif. Lom. Mim. Sod) harflarini أَيْ أَنَا الله أَعْلَمُ وأُفَصِّلُ، منم خداي كه ميدانم پيدا ميكنم (ay ana Allohu a’lamu va ufassilu, manam Xudo ki midonam va paydo mikunam) – «Men barcha narsani biluvchi va mufassal bayon qiluvchi Allohman» deb tafsir qilgan (Jurjoniy, n.d.:29b). Shu yo‘sinda الٓرٰ (Alif. Lom. Ro) harflariga أَيْ أَنَا الله أَرَى (ay ana Allohu aro) – «Men barcha narsani ko‘ruvchi Allohman», صٓ (Sod) harfiga أَيْ صَدَقَ الله (ay sodaqollohu) – «Alloh rost aytdi», طسٓ (To. Sin) harflariga بحق طول وسناء من (bihaqqi tovli va sanoi man) – «Mening buyukligim va maqtovim haqqi», طسٓمٓ (To. Sin. Mim) harflariga بحق طول وسناء وملك من (bihaqqi tovli va sanoi va mulki man) – «Mening buyukligim, maqtovim va mulkim haqqi» deb ma’no bergan. Qof surasi avvalidagi قٓ (Qof) harfini «Dunyoni o‘rab turuvchi tog‘ nomi» deb, نٓ (Nun) harfini esa «Baliq. Boshqa qarashda aytilishicha siyohdon» deb izohlagan.

Jurjoniy eng ko‘p harflar ishtirok etgan Maryam surasi 1-oyatidagi كٓهيعٓصٓ (Kof. Ha. Y. Ayn. Sod] harflarini sahobiy Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat keltirish orqali sharhlagan. Unga ko‘ra كٓ (Kof) كَافِي (Kofiy) – «kifoya qiluvchi», هٓ (ha) هادي (Hodiy) – «hidoyat qiluvchi», يٓ (ya) حَكِيم (Hakim) – «Hakim Zot», عٓ (ayn) عَلِيم (Alim) – «barcha narsani biluvchi Zot», صٓ (sod) صَادِق (Sodiq) – «Rost so‘zlovchi» tarzida sharhlagan.

[2] Imom Moturidiyning «Ta’vilot al-Qur’on» tafsirida ham G‘ofir surasi «Mo‘min» nomi bilan zikr qilingan.

«Hoshiya ala-l-Kashshof» asarida Jurjoniyning muqattaot harflar borasidagi o‘ziga xos yondashuvini, «Tarjumon al-Qur’on» asarida esa boshqa bir yondashuvini kuzatish mumkin. Jurjoniy hoshiyada ushbu harflarning aynan ma’nosi emas, balki ularning qanday maqsadda zikr etilganini izohlashga harakat qilgan bo‘lsa (Jurjoniy, 2016:277), lug‘atga oid ushbu asarida ularning shunchaki ma’nolarining o‘zini keltiradi. Bundan har ikki asarning yozilish maqsadi hamda ular mo‘ljallangan auditoriya turlicha bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Ayrim so‘zlarning fors tilidagi emas, balki arab tilidagi ma’nolari keltirilgan. Jumladan, Qasas surasi 85-oyatidagi فَرَضَ عَلَيْكَ (faraza alayka) iborasini أَيْ نَزَّلَ عَلَيْكَ (ay nazzala alayka) – «yoki senga nozil qilgan» tarzida, Tavba surasi 90-oyatidagi الْمُعَذِّرُ (al-muazzir) so‘zini الَّذِي لَا عُذْرَ لَهُ (allazi la uzro lahu) – «uzri yo‘q kishi» tarzida, Baqara surasi 79-oyatidagi وَيْلٌ (vayl) so‘zini واي وهلاكات، وَيُقَالُ الْوَيْلُ وَادٍ فِي جَهَنَّم (voy, halokat. Va yuqolu al-vayl vodin fi jahannam) – «Voy, halokat. Aytilishicha, vayl jahannamdagi bir vodiydir» tarzida arab tilida ifodalagan (Jurjoniy, n.d.:5b). Ehtimol, bu holat muallifning asarni qaysi tilda yozayotganini yoddan chiqarishi bilan izohlanar. Zero, Jurjoniy arab va fors tillarida yuzga yaqin asar yozgan bo‘lib, ularning aksarini arab tilidagi asarlar tashkil etadi.

Jurjoniy asarda ayrim so‘zlarning ta’rifini keltirmay, shunchaki مَعْرُوفٌ (ma’ruf) so‘zini yozib ketgan. سَاق (soq) – «boldir», زَنْجَبِيل (zanjabil) – «zanjabil», سَيْل (sayl) – «sel», يَاقُوت (yoqut) – «yoqut», نَعْل (na’l) – «shippak», مَرْجَان (marjon) – «marjon», كَافُور (kofur) – «kofur, hushbo‘y modda», زَيْتُون (zaytun) – «zaytun», دَلْو (dalv) – «chelak» va هُدْهُدْ (hudhud) – «hudhud (qush turi)» so‘zlari misolida buning guvohi bo‘lish mumkin. Ushbu so‘zlarning maishiy buyum, o‘simlik, inson tana a’zosi yoki qush nomi ekanidan kelib chiqib, olim yashagan zamon va makonda ushbu so‘zlarning kundalik so‘zlashuvda qo‘llangani haqida xulosa qilish mumkin. Shuningdek, asarda duolarda mashhur bo‘lgan اللَّهُمَّ (Allohumma) lafzi «Ey, bor Xudoyo» tarzida ifodalangan.

«Tarjumon al-Qur’on»da Qur’oni karimda kelgan deyarli barcha atoqli nomlar zikr etilgan bo‘lib, ularning izohi o‘ta sodda tarzda ifodalangan. Masalan, payg‘ambarlar ismi zikr qilinib, «payg‘ambarlardan biri» yoki «payg‘ambar ismi» tarzida izohlangan bo‘lsa, Fir’avn, Homon, Qorun kabi din dushmani sifatida ko‘riluvchi shaxslar ismi «bir kofir kishining ismi» tarzida ifodalangan. Geografik joy nomlari esa

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

aniq bir hudud bilan zikr qilingan. Jumladan, Bobil – «Iroqdagi joy nomi», Judiy – «Mo‘suldagi tog‘ nomi», Tuvo – «Shomdagi vodiy nomi», Yasrib – «Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning shahri nomi», Safo – «Makkadagi tog‘ nomi» tarzida izohlangan. Jurjoniyning boshqa asarlarida har bir masalaga o‘ta daqiqlik bilan yondashishi hisobga olinsa, mazkur asardagi sodda va xalqchil bayon uning oddiy xalqqa mo‘ljallanganini ko‘rsatuvchi yana bir omil sanaladi.

Asarda o‘ttizga yaqin so‘z takror qo‘llangan bo‘lsa-da, ushbu so‘zlar turli suralarda turli ma’nolarda kelgan. Masalan, Jurjoniy غُرْفَةٌ (g‘urfa) so‘zini Baqara surasi 249-oyatida «bir kaft suv» ma’nosida, Furqon surasi 75-oyatida esa «jannatdagi oliy darajali xos xona» ma’nosida sharhlagan. Shuningdek, A’rof surasi 146-oyatidagi غَيٌّ (g‘ay) so‘zini «gumroh bo‘lmoq» ma’nosida, Maryam surasi 59-oyatida esa «jahannamdagi bir vodiy» ma’nosida sharhlangan (Jurjoniy, n.d.:21b, 45a). Isro surasi 79-oyatida kelgan نَافِلَة (nofila) so‘zini «farz bo‘lmagan toat» deb, Anbiyo surasi 72-oyatida kelgan نَافِلَة (nofila) so‘zini «farzand» deb sharhlagan. Bundan har bir so‘zni uning oyat kontekstida anglatgan ma’nosiga ko‘ra sharhlagani kelib chiqadi.

Asarda mufradotlar, ya’ni yakka so‘zlardan tashqari, Qur’on iboralari va so‘z birikmalar ma’nolari ham yoritib o‘tilgan. Baqara surasi 203-oyatidagi مَعْدُودَاتٍ فِي أَيَّامٍ (fi ayyamin ma’dudot) iborasi «Ma’lum kunlarda. Ular Qurbon hayitidagi tashriq kunlaridir» deb, Haqqo surasi 7-oyatida kelgan أَيَّامٍ حُسُوماً (ayyamin xusuman) iborasini «qayg‘uli kunlar» deb izohlagan (Jurjoniy, n.d.:47a). Jurjoniy حُسُوماً (xusuman) so‘zini «qayg‘uli» deb izohlagan bo‘lsa, boshqa tafsirlarda bu so‘zga «beminnat» ma’nosi berilgan. Shuningdek, Saba’ surasi 14-oyatida zikr etilganدَابَّةُ الأَرْض (dobbat al-arz) birikmasi aqida kitoblarida «qiyomatga yaqin chiqadigan, gapiruvchi jonivor» sifatida yoritilsa-da, Jurjoniy uni oyat siyoqiga muvofiq «yog‘och yeydigan jonivor» tarzida izohlagan (Jurjoniy, n.d.:47a).

«Tarjumon al-Qur’on» asarida olimning ilmiy istilohlar ta’riflariga bag‘ishlangan «at-Ta’rifot» asarida zikr etilgan ayrim so‘zlar ham uchraydi. Ularni yoritishda har ikki asarda ikki xil yondashuv qo‘llangan. Bundan har ikki asarning ikki xil ilmiy saviyadagi auditoriya uchun mo‘ljallangani yaqqol ko‘rinib turadi. Jumladan, «at-Ta’rifot» asarida Najm surasi 9-oyatida kelgan قَابَ قَوْسَيْنِ (qoba qavsayn) iborasini tasavvufiy istiloh sifatida «qurbat maqomi» deb ta’riflagan bo‘lsa, «Tarjumon al-Qur’on» asarida esa mazkur birikmaga «ikki kamon miqdori» deb ma’no beradi (Jurjoniy, n.d.:51[a]). Bundan tashqari, Tahrim surasi 8-oyatidagi تَوْبَةً نَصُوحاً (tavbatan nasuhan) iborasining lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini batafsil zikr etadi. Ibn Abbosning tavba haqidagi so‘zini, shuningdek oyatlardan dalillar keltiradi. So‘ng ushbu ibora haqidagi boshqa fikrlarni ham zikr qiladi (Jurjoniy, 2004:63). «Tarjumon al-Qur’on»da esa qisqagina qilib «chin va xolis holda ortga qaytmoq» deb izohlash bilan kifoyalanadi (Jurjoniy, n.d.:53a). Bularning barchasidan Jurjoniy «at-Ta’rifot» asarini mutaxassis va olimlar uchun, «Tarjumon al-Qur’on» asarini esa oddiy xalq uchun yozganini tushunish mumkin. Bu esa olimning asar ta’lif etish, xususan, Qur’on ma’nolarini yoritishdagi yuksak ilmiy farosat egasi bo‘lganinidan darak beradi.

XULOSA

Asarning bugunga qadar saqlanib qolishi uning Qur’oni karim so‘zlarini tushunishda asrlar davomida murojaat qilib kelingan muhim bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning fors tilida yozilgani esa ajamiy xalqlar uchun o‘z davrida Qur’onni to‘g‘ri tushunish manbasi bo‘lib xizmat qilganini anglatadi. Zero, Jurjoniy yashab ijod qilgan Temuriylar davlatida fors tili asosiy ilm tillaridan biri bo‘lgan. Qolaversa, hozirgi kunda ham Qur’on so‘zlarining ma’nolariga bag‘ishlangan alohida lug‘atlarning turli tillarda nashr qilinishi bu uslubda asar yozish ahamiyati hanuz dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

Asarga Qur’oni karimni tushunish nuqtai nazaridan yondashilsa, u o‘zida Qur’on ilmlarining bir necha sohasini jamlagan. Asarni g‘arib al-Qur’on, shu bilan birga, Qur’on ilmlarining muhim sohasi hisoblangan معاني القرآن – Qur’on ma’nolari doirasiga kiruvchi asarlar safiga ham qo‘shish mumkin.

«Tarjumon al-Qur’on» asarini o‘rganish hozirgi va Temuriylar davridagi Qur’onni tushunish o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni bilish, u davrda oddiy xalq uchun Qur’ondagi qaysi so‘z va iboralarni izohlash va sharhlashga ehtiyoj bo‘lgani haqida xulosa qilish imkonini beradi. Asarning uslubi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib turgan xalqchil risolalar tayyorlash masalasi o‘sha zamonda ham ahamiyatli bo‘lganini ko‘rsatadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Botirbek Hasan. (1995). Qur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha lug‘ati. G‘afur G‘ulom.
2. Muhammad Qosim Farishta. (2008). Tarixi farishta. Madaniy osorlar uyushmasi.
3. Abul Maoliy Ahmad ibn Muhammad G‘aznaviy. (n.d.). Tarojum al-a’ajim [Manuscript, No. 1249]. Eronning Majlisi sho‘ro milliy kutubxonasi.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

4. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. (2008). Kashf az-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun (Vol. 3). Dor ihyo at-turos al-arabiy.
5. Ahmad Amir Muhammad Johin Ismoil. (2013). Al-Mufassirun fi bilod Movarounnahr. Dor al-kutub al-misriya.
6. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (2016). Hoshiya ala-l-Kashshof. Dor al-kutub al-ilmiya.
7. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (2004). Mu‘jam at-ta’rifot. Dor al-fazila.
8. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (n.d.). Tarjumon al-Qur’on [Manuscript, No. 8760]. Eronning Majlisi sho‘ro milliy kutubxonasi.
9. Davronbek Maxsudov, A. Abdullayev, & J. Cho‘tmatov. (2022). Movarounnahrlik 10 mufassir. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
10. Muhyiddin Yahyo ibn Sharaf Navaviy. (1980). Al-Majmu’ fi sharh al-Muhazzab (Vol. 3). Maktaba al-irshod.
11. Mahmudxo‘ja Nuritdinov. (2020). Qur’oni karim so‘z va iboralari arabcha-o‘zbekcha ilmiy-izohli muxtasar lug‘ati. Globe edit.
12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (n.d.). J harfi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
13. Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy. (n.d.). Al-Mabsut (Vol. 1). Ihyo at-turos al-arabiy.
14. G‘ulom Husayn Sodiqiy. (1966). Ba’zi az ko‘huntarini asari nasri forsiy. Tehron universiteti Adabiyot fakulteti jurnali, (IV), 85.
15. Charles Ambrose Storey. (1972). Persian literature (Y. Y. Bregel, Trans. into Russian). Moskva.
16. Muhammad Muhsin Og‘o Buzurg Tehroniy. (1959). Az-Zari’a ila tasonif ash-shia. Eron davlat nashriyoti.
17. I. Usmonov & G. Saidova. (2010). Ya’qub Charxiy tafsirining turkiy tarjimasi. O‘zRFA.

REFERENCES

1. Botirbek Hasan. (1995). Qur’oni karim so‘zlarining arabcha-o‘zbekcha lug‘ati. G‘afur G‘ulom.
2. Muhammad Qosim Farishta. (2008). Tarixi farishta. Madaniy osorlar uyushmasi.
3. Abul Maoliy Ahmad ibn Muhammad G‘aznaviy. (n.d.). Tarojum al-a’ajim [Manuscript, No. 1249]. Eronning Majlisi sho‘ro milliy kutubxonasi.
4. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalifa. (2008). Kashf az-zunun an asomiy al-kutub va-l-funun (Vol. 3). Dor ihyo at-turos al-arabiy.
5. Ahmad Amir Muhammad Johin Ismoil. (2013). Al-Mufassirun fi bilod Movarounnahr. Dor al-kutub al-misriya.
6. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (2016). Hoshiya ala-l-Kashshof. Dor al-kutub al-ilmiya.
7. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (2004). Mu‘jam at-ta’rifot. Dor al-fazila.
8. Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad Jurjoniy. (n.d.). Tarjumon al-Qur’on [Manuscript, No. 8760]. Eronning Majlisi sho‘ro milliy kutubxonasi.
9. Davronbek Maxsudov, A. Abdullayev, & J. Cho‘tmatov. (2022). Movarounnahrlik 10 mufassir. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
10. Muhyiddin Yahyo ibn Sharaf Navaviy. (1980). Al-Majmu’ fi sharh al-Muhazzab (Vol. 3). Maktaba al-irshod.
11. Mahmudxo‘ja Nuritdinov. (2020). Qur’oni karim so‘z va iboralari arabcha-o‘zbekcha ilmiy-izohli muxtasar lug‘ati. Globe edit.
12. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (n.d.). J harfi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.
13. Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy. (n.d.). Al-Mabsut (Vol. 1). Ihyo at-turos al-arabiy.
14. G‘ulom Husayn Sodiqiy. (1966). Ba’zi az ko‘huntarini asari nasri forsiy. Tehron universiteti Adabiyot fakulteti jurnali, (IV), 85.
15. Charles Ambrose Storey. (1972). Persian literature (Y. Y. Bregel, Trans. into Russian). Moskva.
16. Muhammad Muhsin Og‘o Buzurg Tehroniy. (1959). Az-Zari’a ila tasonif ash-shia. Eron davlat nashriyoti.
17. I. Usmonov & G. Saidova. (2010). Ya’qub Charxiy tafsirining turkiy tarjimasi. O‘zRFA.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

2/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 10.11.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 1/8.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

“Standard Poligraf Service”
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.